

MADANIY MEROS OBYEKTALARIDAN TURISTIK XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH UCHUN FOYDALANISH YO'NALISHLARINING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish bo'yicha foydalanishning xorij mamlakatlari tajribasi tahlil qilinib, Braziliya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Turkiya va Janubiy Koreya singari mamlakatlarda mazkur yo'nalishda olib borilayotgan faoliyati tadqiq etilgan. Fransiyaning Eyfel minorasida xizmat ko'rsatishning diversifikatsiyalanishi, xizmatlarning keng miqyosli ekanligi turli segmentlarning talablarini qondirishi bo'yicha tajribani o'rganish asosida, Buxoro viloyati madaniy meros obyektlardan samarali foydalanishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: diversifikatsiya, madaniy meros, madaniy meros menejmenti, turizm sanoati, ijodiy kontent, raqamli san'at.

Kirish

Madaniy meros (MM) va turizm bozori o'rtasidagi munosabatlarning konseptual modelini shakllantirish, asosan, turizm bozorining murakkabligi, madaniy merosni boshqarish (MMB) va turizm destinatsiyasini boshqarish jarayonlarida ishtirokchi tomonlar o'rtasidagi munosabatlar holati va ularning murakkabligi, qonunchilik bazasi va mamlakatlar hukumati yuritadigan sohaga taalluqli siyosatning ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, madaniy merosning mavjud xususiyatlari va qiymati bilan belgilanadi. Hukumat siyosati va qonunchilik asoslari bu kabi munosabatlardagi kuchlar taqsimotining muvozanatini belgilab beruvchi omillar sifatida qabul qilinishi mumkin [1].

Moddiy madaniy merosning xususiyatlari ko'p qirrali bo'lib, uning mohiyatida iqtisodiy va madaniy qiymatlar uyg'unligi mujassamlashadi[6]. Madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini tashkil etish borasidagi ilg'or tajribalarga e'tibor qaratishdan avval turizm ishtirokchilari va madaniy meros menejmenti doiralari o'rtasidagi munosabatlar mohiyatini aniqlashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

I.Mate'ci'c, O.Kesar [1], D.Thorsby [5], B.McKercher, Ho PSY, H.Cros [9], A. obyektlari, madaniy meros obyektlari iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish, tarixiy va madaniy obyektlarda xizmat ko'rsatish turlarini takomillashtirish singari mavzularda tadqiqotlar olib borgan.

S.M.Ali, F.A.Latif, Z.Mohamad [7] bio madaniy meros diversifikatsiyasi mavzusida izlanishlar o'tkazgan bo'lsa, D.Fanani [8] mahalliy turizmni madaniy turizm xizmatlari vositasida diversifikatsiya qilish yo'nalishi bo'yicha o'rganishlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Turizm sohasida madaniy meros obyektlaridan foydalanishda xalqaro miqyosda turli mamlakatlarning tajribasi nazariy, uslubiy va konseptual asoslarga ko'ra o'rganilib, tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qiyosiy tahlil, konseptual yondashuv, ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, analiz va sintez singari tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Turizm ishtirokchilari va madaniy meros menejmenti o'rtasidagi munosabatlar turli xil shakllarga ega bo'lib, hozirga qadar ko'plab olimlar guruhi tomonidan bu borada izlanishlar olib borilgan. Odatda, turizm ishtirokchilari (xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan) turizm mahsulotini


targ'ib qilish va rivojlantirish uchun javobgar, madaniy meros menejmenti esa madaniy meros aktivlarini taqdim etish va saqlash bilan shug'ullanadi [6].

Ko'plab turizm destinatsiyalari uchun madaniy meros obyektlari va boshqa madaniy yo'nalishdagi turistik takliflar tizimini rivojlantirish majmuaviy asosda turizm portfelini diversifikatsiya qilish imkoniyatini taqdim etib beradi. Ayrim davlatlarning turizm bozorlari uzoq vaqt davomida sohil va dengiz turizmiga oid xizmatlarga asosiy e'tiborini qaratgan bo'lsa-da, bugunga kelib, asta-sekinlik bilan ular tobora ko'proq madaniyatga asoslangan turizm takliflarini shakllantirishga yoki diversifikatsiyalashga intilmoqda va bu orqali sayohatgoh haqida turistlarda yanada ko'proq ma'lumot olish va undan bahramand bo'lish imkoni yuzaga keladi [10]. Xorvatiya, Shimoliy Afrika mamlakatlari, ayniqsa Tunis, madaniy meros resurslari va destinatsiyaga xos madaniy imkoniyatlardan jumladan, madaniy meros obyektlari, gastronomiya, an'anaviy tadbirlar, qo'l mehnati san'at turlari va boshqalardan foyda olish maqsadida faol intilishlarni namoyon etayotgan mamlakatlar sirasidandir [12].

Braziliya turizm sanoati mahalliy aholining rang-barang va qiziqarli turmush tarzini tarannum etadigan sayyohlik destinatsiyasi sifatida dunyo miqyosida o'z nufuziga ega hududlar sirasiga kirib, uning boy madaniy merosi turistlarning doimiy e'tibor markazida turadi. Jumladan, mamlakatdagi Ouro Preto tarixiy shaharchasi 1980-yilda mamlakatning Jahon moddiy madaniy merosi obyektlari ro'yxatiga kiritilgan dastlabki obyekt sifatida qadrlansa, taniqli buyuk rassom Roberto Burle Marks yashagan uy va unga tutash bog'lar 2021-yilda ro'yxatga olingan eng so'nggi resurs sifatida e'tirof etiladi. Bundan tashqari, butun Braziliya hududi bo'ylab juda ko'plab turli-tuman madaniy va tabiiy meros obyektlari mavjud bo'lib, ularning umumiy soni bugunga kelib, yigirma uchtani tashkil etadi. Salvador da Bahia va Sao Luis tarixiy markazlari, Olinda kolonial shahri hamda Braziliyaning poytaxti Brasilia shular jumlasida alohida ahamiyatlidir. Tabiiy madaniy meros hududlari sifatida Markaziy Amazon muhofaza kompleksi, Braziliyaning Atlantika orollari, Pantanal, Iguacu sharsharalari Milliy Parki va Braziliyaning qirg'oq hududlarini keltirib o'tishimiz mumkin [13].


Portugaliyalik sayohatchi olimlar tomonidan 1503-yilda kashf qilingan va 2001-yilda UNESCO ro'yxatiga kiritilgan Fernando de Naronha oroli dunyodagi eng jozibador chuqur suv havzasida cho'milish imkoniyati mavjud destinatsiyalardan biridir. Hududda turistlar uchun dengiz dunyosining xilma-xilligini baholash va his etish imkoniyatini taqdim etish maqsadida, *snorkeling* bilan suv tubiga sho'ng'ish imkoniyati uchun alohida uskunalar va xavfsizlik choralari ko'rilgan xizmatlar taklif etiladi. Qayiqlarda tashkillashtiriladigan sayohatlar, muhofazalangan muhitda delfinlar va kitlarni kuzatish imkoniyati ham turistlarning doimiy qiziqishiga sabab bo'lib, bu kabi xizmatlar hududlarga yaxshigina daromad olib keladi.

2023-yilning may oyidan, 2024-yil martigacha Buyuk Britaniya madaniy meros obyektlariga amalga oshirilgan tashriflarni tahlil qilish maqsadida mamlakatning "Raqamli, Madaniy, Ommaviy va Sport Departamenti" tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida, ishtirokchilarning 38 foizi madaniy meros obyektlariga yiliga uch yoki to'rt marotaba tashrif buyurganliklari aniqlangan bo'lib, sakkiz foizi bu kabi hududlarga haftasiga kamida bir marta borishni afzal ko'rishlarini ma'lum qilishgan [14] (1-rasm). Demak, Angliya madaniy meros obyektlariga bo'lgan qiziqish doimiy tashrif buyuruvchilar orasida shu darajada yuqoriki, ular yilida uch yoki to'rt marotaba ushbu turdagi sayohatlarga chiqish maqsadlari uchun albatta mablag' ajratadilar. Buning sababi, birinchidan, tarixiy va madaniy bilimlar va unga monand muhitga bo'lgan intiluvchanlik yuqoriligi, ikkinchidan, yo'l, transport, joylashtirish vositalari infratuzilmasi, qolaversa obyektlar hududida tashkillashtirilgan juda qulay, keng turdagi xizmatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi hamda xizmatlarning yuqori sifatida ko'zga tashlanadi.



1-rasm. 2023-2024-yillarda Buyuk Britaniya madaniy meros obyektlariga tashriflar oralig'i [15]

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2013-2023-yillar davomida madaniy me'ros obyektlariga oilaviy tashriflar 50% dan ziyod o'sishni ko'rsatgan. Tintagel Qal'asi va Lindisfarne Priory kabi 18 ta obyektlar rekord darajadagi tashriflar ko'rsatkichini namoyon etib, Gainsborough Old Hall va Helmsley Qal'asi singari mashhur madaniy obyektlar ham tashrif buyuruvchilar orasida tobora ommalashib bormoqda (2-rasm).



2-rasm. 2023-yilda Buyuk Britaniyadagi ayrim MMOLarga tashriflarning o'sish ko'rsatkichlari [15]

2024-yilda Britaniyaning tarixiy madaniy obyektlariga oilaviy tashriflar avvalgi yillarga nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichni taqdim etgani holda, 550000 dan ortib ketdi. Birgina Stonehengeda oilaviy tashriflar so'nggi o'n yillikda o'rtacha hisobda 23% dan o'sgan. Umuman olganda, mamlakat miqyosida madaniy meros obyektlariga tashrif buyuruvchilar soni har yili o'rtacha 12% dan o'sib, tarixiy qal'alar, saroylar va monastirlarning sakkiztasi 2023-yilda eng yuqori tashrif ko'rsatkichini qayd etgan bo'lsa, yana o'nta hudud so'nggi o'n yillikdagi eng yaxshi davrni ijobiy ma'noda o'z boshidan o'tkazdi [15]. Kelib chiqadiki, MMO larda yaratilgan

xizmatlar hamda shart-sharoitlar shu darajada qulay va sifatliki oilaviy tashriflar uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan va mijozlar o'zlarini erkin his etishlari uchun MMO menejment sohasi vakillari doimiy rivojlanish tomon intilmoqda.

Tarixiy-madaniy ahamiyatga ega hududlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar hamda xodimlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda bu turdagi obyektlarda umumiy hisobda 32 000 tadan ziyod ish o'rinlari mavjud bo'lib, ulardan 70% xodimlar mahalliy hududlarda istiqomat qiluvchi aholi hissasiga to'g'ri keladi. Tarixiy-madaniy obyektlar Britaniya iqtisodiyotiga yiliga taxminan 1,3 milliard funt sterling daromad keltiradi va uning uchdan ikki qismi mahalliy hududlarda sarflanadi. Buyuk Britaniyaning UNESCO milliy komissiyasi UNESCO brendi muhim marketing vositasi ekanligini, sayyohlar sonini va ularning xarajatlarini, mahalliy ishchi o'rinlarini hamda joylashtirish vositalari narxlarini oshirishda ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. UNESCO brendi Britaniya iqtisodiyotiga yiliga o'rtacha 151 million funt sterling miqdorida moliyaviy foyda keltirib, ta'lim loyihalari va tashabbuslarini rag'batlantirishda, global tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash va xalqaro imidjni yaxshilashda ko'mak beradi [17].

Mahalliy sayyohlar 2021-yilda MMO lariga taalluqli safarlar uchun 3,8 milliard funt sterling atrofida mablag' sarflagan. Bu raqam 2018-2019-yillarda taxminan 3,4 milliard funt sterling atrofida bo'lgan [16].

Xizmatlar diversifikatsiyasida filmografiya, zamonaviy kontentlar bilan hamkorlik singari yo'nalishlar Angliya madaniy meros obyektlari uchun alohida o'ringa va qiymatga ega yo'nalish hisoblanib, birgina 2022-yilda tarixiy ahamiyati yuqori madaniy meros obyektlarida 4100 kun davomida tasvirga olish imkoniyatlari yaratilishi hisobiga, Apple Tv da "Ted Lasso", Netflixning "Bridgeton" dasturlari singari ko'plab loyihalar amalga oshirildi.

Fransiyaning Eyfel minorasi butun dunyo bo'ylab, har yili millionlab turistlarni o'ziga ohanrabodek jalb etib keladigan eng mashhur MMO lardan hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, minoraning eng yuqori qismiga ko'tarilganda inshoot muhandisi Gustave Eiffelning shaxsiy ofisini ko'rish imkoniyati mavjud. Qiziq jihati, tashrif buyuruvchi yuqoriga mustaqil ravishda ko'tariladi, ammo gid e'tibor berilishi lozim bo'lgan eng kerakli jihatlar bo'yicha maslahatlar beradi. Ba'zi holatlarda, xavfsizlik sabablari bilan Eyfelning ushbu qismi yopilishi mumkin va agar shunday holat kuzatilgan taqdirda buyurtma qilingan chipta to'lovidan ma'lum qismi turistlarga qaytariladi[18]. Eyfel minorasining cho'qqisiga ko'tarilish uchun minoraga kelganda albatta yuqori qavatga ko'tarilish imkoniyatini tasdiqlatib olish tavsiya etiladi. Eyfel minorasining mashhurligi sababli, xavfsizlik tekshiruvi va liftga kirish paytida uzun navbatlar kuzatilishi mumkin. Biroq, ertalab yoki kechqurun soat 17:00 dan keyin tashrifni amalga oshiradiganlar, tig'iz mavsumlarda ham kutish vaqtini kamaytirishlari va eng asosiysi betakror panoramadan bahra olishlariga ko'proq e'tibor qaratishlari mumkin bo'ladi.

Minoraga chiqish borasida taklif etilayotgan ko'plab turlarda quyidagi qulayliklar mavjudligi qayd etilgan: nogironlar aravachalari uchun qulayliklar; bolalar aravachalari uchun qulaylik; xizmat ko'rsatuvchi(yo'l boshlovchi va h.k) hayvonlarning kirishi uchun ruxsatnoma.

Nogironligi bor shaxslar tashrifni amalga oshirishlaridan avval turni tashkillashtiruvchi firmalarni ogohlantirish maqsadga muvofiq sanaladi. Odatda turning davomiyligi odatda 1,5 dan 2 soatdan, ayrim holatlarda undan ham uzoqroq vaqtga cho'zilishi mumkin.

Minoraga lift yoki maxsus zinalar orqali ko'tarilish imkoniyatlari yaratib berilgan bo'lib, zinalardan ko'tarilish yaxshigina jismoniy kuch talab etgani holda, mutaxassislardan turlarni tashkillashtirish mobaynida alohida xushyorlik talab etadi. Turli noxush holatlar yuzaga kelishi mumkinligi e'tiborga olingan holda xodimlarning tibbiy malakaga ega ekanliklariga alohida talab qo'yilganligi ham turistlarning xavfsizligiga e'tibordan darak beradi.

Gustave Eiffel vafotiga 100 yil to'lgan 2023-yilda Fransiya Eyfel minorasida 6,3 million nafar tashrif buyuruvchilarni kutib oldi. 2022-yilga nisbatan, 2023-yilda Eyfel minorasiga tashrif buyuruvchilar soni deyarli 8% ga o'sdi va 2019-yildagi pandemiyadan avvalgi darajaga, ya'ni 6,2 million tashriflar amalga oshirilgan ko'rsatkichlarga yetgani holda, yanada dinamik ko'rinish kasb etdi. Ushbu raqamlar yangi xizmat turlarining muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilganligi bilan ham xarakterlanishi mumkin. Sayohat jarayonlariga gidlar kiritilib, sayyohlar yodgorlikda tashrif

jarayonida yanada yaxshiroq va sifatliroq tajriba to'plashlari ta'minlanayotganligi, eng mashhur oshpazlarning esa inshootdagi restoranlarda, Madame Brasserie va The Jules Verneda faqat va faqat eng xushtam taomlar menyusini taqdim etayotganligi shular jumlasidandir. "Eiffel, toujours plus haut" (Eiffel, doimiy ravishda yuqori) nomli ko'rgazmada Gustave Eiffel vafotining 100 yilligi munosabati bilan 2023-yil 27-dekabrda, minorada chiroqlar shousi namoyish etildi va milliy televideniya orqali jonli translyatsiya qilindi [11].

Xitoy tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, sayohatchilar oqimi bir qator xavflarni keltirib chiqarishi mumkinligi fakti yuzaga kelishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, janubiy Xitoydagi Zili qishlog'i UNESCOning Jahon madaniy merosi obyektlari ro'yxatida qayd etilgan Kaiping minoralarini ko'rish maqsadida tashrif buyurgan turistlar sonining oshishi kuzatildi[3]. Ushbu diqqatga sazovor madaniy obyektlar, aholi istiqomat qiladigan shaharchada joylashgan bo'lib, 2007-yilda Jahon madaniy merosi maqomi berilishi bilan mazkur inshootlarni ko'rish istagida eski shaharchaga ichki turistlar oqimi keskin oshib ketgan[4]. Ushbu o'sish destinatsiyaning tijoratlashishiga olib kelgani holda, yanada ko'proq sayyohlar va mablag'lar oqimi shakllanishini ta'minladi.

Biroq, afsuski gentrifikatsiya yuzaga kelishi mazkur o'zgarishlar fonida yuzaga kelib, aks ta'sirlar paydo bo'lishiga turtki berdi. Natijada, uzoq yillar mobaynida hududda istiqomat qilib kelgan mahalliy aholi vakillari shaharni asta-sekin tark eta boshladilar va mavjud turar-joylar biznes maqsadlariga moslashtirildi.

Janubiy Koreya poytaxti Seul boy madaniy merosga ega poytaxt shaharlardan bo'lib, aholisining ko'pchiligi yiliga kamida bir marotaba madaniy joylarga tashrif buyuradi, ammo poytaxt shaharga yosh sayyohlarni jalb qilish uchun innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Seul tadqiqot instituti tomonidan o'tkazilgan va 523 nafar kishini qamrab olgan so'rovnomadan ma'lum bo'lishicha[19], ishtirokchilarning 48,9 foizi madaniy meros obyektlariga yiliga kamida bir marota tashrif buyurishni afzal ko'radi. Tadqiqotchilar xulosalariga ko'ra, maxsus dasturlarni ishlab chiqish va madaniy meros obyektlarini zamonaviy, ijodiy kontent bilan uyg'unlashtirish, jumladan, shoular, raqamli san'at va immersiv tajribalar singarilarni shakllantirish maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

Afrikaning MMOlari borasida eng yetakchi mamlakati Misrda 2022-yil noyabr oyida Milliy turizm strategiyasi ishga tushirilib, unga muvofiq 2028-yilgacha mamlakatga 30 million nafar turist jalb qilish maqsad qilinmoqda va yiliga 25-30 foizlik o'sish ko'rsatkichlarini qayd etish rejalashtirilgan. Ushbu strategiya asosida Misrning arxeologik hududlari va muzeylaridagi tashrif buyuruvchilar uchun yaratilgan mavjud xizmatlarni yanada yaxshilash sa'y-harakatlari davom ettirilib, turistlar uchun va nogironligi bor insonlar uchun mavjud imkoniyatlar yaxshilanadi.

Italiyaning ko'zga ko'ringan MMO laridan sanaluvchi Kollizey ham o'zining boy infratuzilmasi va texnik yechimlar bilan uyg'unlashgan xizmatlari vositasida turistlarga a'lo darajadagi xizmatlar paketini taklif etib kelmoqda. 2023-yil 18-oktabridan inshootga kirish imkonini beruvchi barcha turdagi chiptalar sotuvi qoidalariga o'zgartirishlar kiritilib, ma'muriyat bu orqali spekulyatsiyani amalga oshirayotgan qonunbuzarlarga qarshi kurash boshlab, bundan ko'zlangan maqsad turistlarning katta oqimini yetarli darajada chiptalar bilan adolatli tartibda ta'minlanishiga erishish va narxlarning sun'iy ravishda oshirilishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi. Demak, MMO larda chiptalar sotuvi masalasida alohida yondashuv talab etilib, Italiya tajribasidan kelib chiqqan holda vujudga kelishi mumkin bo'lgan bu boradagi muammolarni bararaf etishning zaruriy chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqish va imkon qadar qisqa fursatda uni amalga oshirish lozim hisoblanadi.

Mutaxasislarning hisob-kitoblariga ko'ra Kollizey har yili mamlakat budjetiga o'rtcha 1,4 milliard yevro miqdorida daromad olib kelishi bilan birga, uning bilvosita ta'siri natijasida inshoot yon atrofida 400 million yevro miqdoridagi mablag'lar aylanishi kuzatilib, oddiy sayr-tomoshalar, yondosh hududlardagi xaridlar orqali amalga oshiriladigan xarajatlar bunda asosiy o'rin tutadi.

Xulosa va takliflar

Madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanish yo'nalishlarining ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ko'plab turizm destinatsiyalari uchun madaniy meros obyektlari va boshqa madaniy yo'nalishdagi turistik takliflar tizimini rivojlantirish majmuaviy asosda turizm portfelini diversifikatsiya qilish imkoniyatini taqdim etib beradi. Ayrim davlatlarning turizm bozorlari uzoq vaqt davomida sohil va dengiz turizmiga oid xizmatlarga asosiy e'tiborini qaratgan bo'lsa-da, bugunga kelib, asta-sekinlik bilan ular tobora ko'proq madaniyatga asoslangan turizm takliflarini shakllantirishga yoki diversifikatsiyalashga intilayotgan bo'lib, Xorvatiya, Shimoliy Afrikaning ayrim mamlakatlari, xususan Tunis shular jumlasidandir.

2. Braziliya tabiiy madaniy meros obyektlari masalasiga katta e'tibor qaratgani holda, mavjud turfa xil imkoniyatlaridan maksimal foydalanish orqali sayyohlar oqimini kengatirib borish strategik yondashuvni amalga oshirmoqda. Bunda, sayyohlarning tabiat bilan uyg'unlikdagi maxsus turlar, xususan, suv ostiga sho'ng'ish, muhofazalangan shart-sharoitlarda kit va delfinlarni kuzatish singarilar shular jumlasidandir.

3. Buyuk Britaniyada 2013-2023-yillar davomida madaniy me'ros obyektlariga oilaviy tashriflar 50% dan ziyod o'sishni ko'rsatgan. Tintagel Qal'asi va Lindisfarne Priory kabi 19 ta obyektlar rekord darajadagi tashriflar ko'rsatkichini namoyon etib, Gainsborough Old Hall va Helmsley Qal'asi singari mashhur madaniy obyektlar ham tashrif buyuruvchilar orasida tobora ommalashib bormoqda. Demak, Britaniyada MMOlarda tizimli asosdagi infratuzilmaviy shart-sharoitlarni yaratilishiga erishilganki, sayyohlar oilaviy vaqt o'tkazishlari uchun juda katta qulay imkoniyatlar mavjudligi qayd etilayotgan ijobiy dinamik ko'rsatkichlardan darak berib turibdi.

4. Britaniya tajribasidan kelib chiqib, tarixiy madaniy meros obyektlarida turli xil ko'rsatuvlar, filmlar, kontent dasturlari tasvirga olinishi uchun qulay imkoniyatlar yaratilishi birinchidan, obyektning mashhurligini, imidjini oshirib, sayyohlar tashrifini shunga monand ravishda ko'payishiga sabab bo'lsa, ikkinchidan, talabning yuqori bo'lishi raqobatchilardan ma'lum ustunliklarga erishish va daromadlar miqdorining barqaror o'sishiga olib keladi.

5. Eyfel minorasi tajribasidan kelib chiqib, obyektlarda nogironligi bor segmentga mos qulayliklar yaratilishi, ularga sotiladigan chipta narxlari nisbatan pastroq yoki bepul bo'lishi ta'minlash ijtimoiy rag'batlanishga munosib hissa qo'shisa, yuqori sifatdagi taomnoma menyusi va oliy toifali oshpazlar obyektning jozibasini yanada oshirib yuborishi aniqlandi. Shuningdek, xodimlarning tibbiy malakaga ega bo'lishi, audiogidlar, suvenirlar savdosi, musiqiy dasturlar, malakali gidlar ham salmoqli ahamiyat kasb etishi xizmatlar sifatida ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I. Matećić and O. Kesar. Conceptualising the Relationship Between Tangible Cultural Heritage and the Tourism Market. n 08 May 2023.
2. Throsby D (2012) Heritage economics: a conceptual framework. In: Licciardi G, Amirtahmasebi R (eds) The economics of uniqueness: investing in historic city cores and cultural heritage assets for sustainable development, the urban development series. The World Bank, Washington, DC. <https://doi.org/10.1596/978-0-8213-9650-6>
3. Hunt, K. (2012, August 14). Tourism boom threatens China's heritage sites. CNN Travel. <https://edition.cnn.com/2012/08/14/world/asia/china-heritage-tourism/index.html>
4. Yi, X., Fu, X., Yu, L., & Jiang, L. (2018). Authenticity and loyalty at heritage sites: The moderation effect of postmodern authenticity. *Tourism Management*, 67, 411–424. <https://doi.org/https://doi.org/10.1016/j.tourman.2018.01.013>
5. Throsby D (2012) Heritage economics: a conceptual framework. In: Licciardi G, Amirtahmasebi R (eds) The economics of uniqueness: investing in historic city cores and cultural heritage assets for sustainable development, the urban development series. The World Bank, Washington, DC. <https://doi.org/10.1596/978-0-8213-9650-6>
6. McKercher B, Ho PSY, du Cros H (2005) Relationship between tourism and cultural heritage management: evidence from Hong Kong. *Tour Manag* 26(4):539–548. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2004.02.018>
7. Ali S. M., Latif F. A. A., Mohamad Z. The heritage culture restoration to engage in bio-cultural diversification // *Malaysian Journal of Sustainable Environment*. – 2024. – T. 11. – №. 2. – C. 75-98.

- 8.Fanani D. et al. Local Tourism Diversification Through Cultural Heritage //2nd Annual International Conference on Business and Public Administration (AICoBPA 2019). – Atlantis Press, 2020. – C. 85-88.
- 9.McKercher B, Ho PSY, du Cros H (2005) Relationship between tourism and cultural heritage management: evidence from Hong Kong. *Tour Manag* 26(4):539–548. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2004.02.018>
- 10.Ashworth, A. (2004) *Cost Studies of Buildings*. 4th Edition, Pearson Prentice Hall, Upper Saddle River.
- 11.<https://traveltomorrow.com/eiffel-tower-welcomed-6-3-million-visitors-in-2023-surpassing-pre-covid-numbers/>
- 12.<https://creativech-toolkit.salzburgresearch.at/heritage-and-cultural-tourism/>
- 13.<https://www.connectbrazil.com/experience-brazils-world-heritage-sites/#:~:text=These%20include%20the%20Historic%20Centers,Park%2C%20and%20Brazil's%20Discovery%20Coast.>
14. <https://www.statista.com/statistics/558111/heritage-site-visit-frequency-uk-england/>
- 15.<https://www.english-heritage.org.uk/about-us/search-news/record-number-of-visitors-in-2023/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
- 16.<https://historicengland.org.uk/research/heritage-counts/heritage-and-economy/visitor-economy/>
- 17.<https://historicengland.org.uk/research/heritage-counts/heritage-and-economy/visitor-economy/>
18. <https://www.eiffelguidedtours.com/experience/eiffel-tower-guided-climb/>
19. https://www.koreatimes.co.kr/www/culture/2024/10/135_383431.html